

ANDIJON VILOYATI JALAQUDUQ TUMANIDA 2021-2023 YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH JARAYONI

*Qo`shmurodov Asadbek Otabek o`g`li,
Egamberdiyeva Nodira Tolmas qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
“ Moliya ” fakulteti 83-guruh talabalar,*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyati Jalaquduq tumani tashabbusli byudjetlashtirish loyihalari doirasida ayrim tahliliy masalalar bayon qilinadi. Jumladan, tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo`naltirilgan mablag`lar, amalga oshirilgan loyihalar, fuqarolar tashabbusli jamg`armasi mablag`lari shakillanish manbalari va amalga oshirilgan loyihalar tahlilini ko`rib chiqamiz.

Kalit so`zlar: tashabbusli byudjet, taklif bildirish, mablag` ajratish, moderizatsiya, g`olib loyihani aniqlash, ovoz berish, pudrachini tanlash, shartnoma tuzish, qoldiq mablaglar, erkin qoldiq mablag`lar, tuman byudjeti, hisobot davri qoldiq mablaglar, erkin qoldiq mablag`lar, tuman byudjeti, hisobot davri, mablag`, taklif bildirish

So`ngi yillarda O`zbekiston respublikasining barcha xududlarida jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayoni yuqori darajada amalga oshirilib yildan – yilga takomillashtirilib kelinmoqda. Ushbu maqolada Andijon viloyati Jalaquduq tumani tashabbusli byudjetda ishtirokini va amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilamiz.

Andijon viloyati Jalaquduq tumani tashabbusli byudjetlashtirish uchun 2021-2023-yillarda yo`naltirilgan mablag`larni ko`rishimiz mumkin.

Andijon viloyati Jalaquduq tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo`naltirilgan mablag`lar miqdori¹

1-jadval
(ming so`m)

T/r	Ko`rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	0	77	785
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg`armasi”ga o`tkazilgan mablag`lar	1 077 000	9 243745	14 327

¹ <https://openbudget.uz/boards/reports>

3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan	1 011 000	9 210 000	14 070
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘	1 056 550	6 746 150	11 405
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	20 450	33 745	257
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	20 450	110 745	1 011

Yuqoridagi 1-jadvalda Andijon viloyati Jalaquduq tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar miqdori yillar kesimida mujassamlashtirilgan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki 2021-yilda yil boshidagi qoldiq 0 so‘mni tashkil etgan. 2022-yilda esa 77 000 so‘mni tashkil etgan bo‘lsa 2023-yilda bu ko‘rsatkich 785 000 so‘mni tashkil etgan. Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar 2021-yilda 1 011 000 000 so‘mni tashkil qilgan, 2022-yilda esa 9 210 000 000 so‘mni tashkil etgan., 2023-yilda bu 14 070 000 so‘mni tashkil etgan. Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘lar 2021-yilda 1 056 550 000 so‘mni, 2022-yilda 6 746 150 000 so‘mni, 2023-yilda esa 11 405 000 so‘mni tashkil qilgan. Hisobvaraqlardagi qoldiq 2021-yilda 20 450 000 so‘m, 2022-yilda 33 745 000 so‘m, 2023-yilda 257 000 so‘m qoldiq summa qolgan. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘ 2021-yilda 20 450 000 so‘m , 2022-yilda 110 745 000 so‘mni, 2023-yilda esa 1 011 000 so‘mni tashkil etgan.

2-jadval

**Andijon viloyati Jalaquduq tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida
amalga oshirilgan tadbirlar²**

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag‘ (ming so‘mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Jami		11	15	12	1 056 550	9 210 000	11 405
1.	Hududiy ichki yo‘llar	1	1	6	103 550	3 700 000	5 916
2.	Umumta‘lim maktablarini ta‘mirlash va jihozlash		1	4		950 000	3 492

² <https://openbudget.uz/boards/reports>

3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		4			3 580 000	
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	1	1	500 000	980 000	1 115
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash						
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	1			168 000		
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	1			285 000		
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)						
9.	Boshqa tadbirlar		X	1			842

Yuqoridagi 2-jadvaldan shuni guvohi bo'ldikki: umumiy 2021-2023-yillar oralig'ida, hududiy ichki yo'llar uchun jami 8 ta loyiha, umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash uchun jami 4 ta loyiha, maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun jami 4 ta loyiha, sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun 3 ta loyiha, ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash uchun 1 ta loyiha, va boshqa tadbirlar uchun jami 1 ta loyiha moliyalashtirilgan. Bizga ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining, "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomi"da Tashabbusli byudjet loyihalari g'oliblarini moliyalashtirish tartibi keltirib o'tilingan. Unga ko'ra quyidagilar tashabbusli budjet jarayonini moliyalashtirishga yo'naltiriladi:

- tuman (shahar)lar budjetlarining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 5 foizi;
- tuman (shahar) budjetlari qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining budjetlari qo'shimcha mablag'larining 30 foizi;
- tuman (shahar) budjetlarida ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ko'zda tutilgan mablag'lar;
- vazirlik va idoralarning tegishli davr uchun tasdiqlangan rivojlantirish dasturlari doirasida ko'zda tutilgan mablag'lar.

Quyidagi 3-jadval)ans huni anglashimiz mumkinki Andijon viloyati Jalaquduq tumanida 2021-yil 1-chorak uchun tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar **20 mln.** so'mni tashkil etgan va bu summa 2-chorakda **111 mln.**so'mga oshgan.

Shu jumladan 2021-yil 4-chorak yakuni bo'yicha tuman miqiyosida **77 mln.** so'mni tashkil qilgan.Ushbu ko'rsatkichlar 2022-yilga kelib ijobiy ko'rsatkichlarni ko'rsatadi. Ya'ni: Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning **5 foiz** qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar 1-chorakda, **4 mlrd. 309 mln.** so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2-chorakda ham huddi shu holat takrorlangan.

Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar esa 1-chorak va 2-chorakda pul ajratilmagan bo'lsa 3-chorakka kelib qariyb 122 mln. so'mni tashkil qilgan. Erkin qoldiq mablag'lari qariyb 278 mln. so'm miqdorida jalb etilgan.

3-jadval

Andijon viloyati Jalaquduq tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari³

(ming so'm)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		2021-yil	2022-yil	2023-yil 1-chorak
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar			8 618 000	11 340 000
Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari				
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		208	120 035	49 710
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari		278 252	652 183
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi		467 135	47 608.01
	Iqtisod qilingan mablag'lar			
Qo'shimcha ajratilgan	PQ-5250ga asosan		625 352	175 000
	PQ-409ga asosan			
	PQ-117ga asosan			2 200 000

³ <https://openbudget.uz/boards/reports>

Jami ajratiladigan mablag'lar	208	10 108 774	114 464 501
-------------------------------	-----	------------	-------------

2023-yil holati uchun tahlil qiladigan bo'lsak, tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning **5** foiz qismi miqdorida ajratilgan mablag'lari 1-choarkda **5 mlrd. 567 mln.** so'mni tashkil qilgan. Bu esa 2022-yil 1-chorak ga qaraganda 1 mlrd. 258 mln. so'mga ko'p. 3- chorak hisobi bo'yicha ham huddi shuncha 5 mlrd. 567 mln. so'm miqdoridagi pul mablag'lari ajratilgan. Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarining **30** foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar esa 2-chorakda qariyb 50 mln so'mni tashkil qilgan va bu esa 2022-yil, 3-choragiga nisbatan 70.33 mln. ga kam, 2021-yil 1-choragiga nisbatan esa 29.71mln. so'mga ko'p. 2023-yil 2-chorakda esa 61.3 mln. so'mga kam. Shu bilan quyidagi jadvaldan shuni guvohi bo'lishimiz muin, 2021-yil 1-faslda umumiy **208 mln.** so'm jalb etilgan. 2022-yil 2-faslda esa qariyb **121 mln.** so'm jalb etilgan. 2023-yilda esa bu ko'rsatkichlar 1-fasl uchun qariyb **50 mln.** so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2-fasl uchun esa, pul mablag'lari ajratilmagan.

4-jadval

**Andijon viloyati Jalaquduq tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida
amalg oshirilgan loyihalar tarkibi⁴**

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'm)
2021-yil			
1.	Jalaquduq tuman tez yordam bo'limini tamirlash ishlariga	287	500 000
2.	Toshhovuz kappa MFY ga toza ichimlik suvlarini tortish ishlariga	85	168 000
3.	So'fi qishloq MFY Uzbekiston ko'chasini tungi yoritish chirog'lariga	72	285 000
4.	Boycheki MFY Jasur ko'chasini asfaltlash ishlariga	30	109 000

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'm)
-----	--------------------------------------	-----------------------------	---

⁴ <https://openbudget.uz/boards/reports>

2022-yil			
1	IDUM ga qo`shimcha bino kurish	Jami	Moliyalashtirish
T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	to`plagan	uchun ajratilgan
2	Ichki yo`llarni tamirlash	oyozlar	mablag` miqdori
		soni	(ming so`m)
2023-yil			
4	Jalaquduq tuman 62 son Davlat	644	980 000
	iqтisoslashtirilgan umumta`lim maktabi	8046	200 000
5	26-MTT ga qo`shimcha bino kurish	611	980 000
2	Jalaquduq tuman Hamzaobod MFY	6099	1 100 000
6	Ichki yo`llarni tamirlash	604	400 000
3	Jalaquduq tuman Uzun ko`cha MFY	6192	1 200 000
7	Ichki yo`llarni tamirlash	3 355	1 200 000
4	Jalaquduq tuman G`ayrat MFY	6105	1 000 000
8	9-DTM ga qayta tamirlash	3 250	850 000
5	Jalaquduq tuman 13 Umumiy o`rta ta`lim		1 000 000
9	13-DTM ga qayta tamirlash	2 923	550 000
6	Jalaquduq tuman 44 Umumiy o`rta ta`lim		800 000
10	Ichki yo`llarni tamirlash	2 829	1 200 000
7	Jalaquduq tuman Tibbiyot birlashmasiga	Va boshqa loyihalar	1 200 000
	buxgalteriya bo`limi binosi eskirganligi	2395	
	sababli yangi bino va jixozlar		
8	Jalaquduq tuman 30 Umumiy o`rta ta`lim	2303	1 000 000
	maktabi joriy tamirlash		
9	Jalaquduq tuman Bo`ston MFY Qorasadaq	6661	1 320 000
	ko`chasini asfaltlash		
10	Jalaquduq tuman Qutlig` MFY Navo	7836	1 300 000
	ko`chasini asfaltlash		
Va boshqa loyihalar			

2021-yil Andijon viloyati Jalaquduq tumani da to`rt chorak yakuniga ko`ra jami 4-ta loyixaga qiymati **1 056 550** (Bir milyart ,ellik olti million, besh yuz ellik ming) so`m ajratilgan.

Bu loyixalar; tez yordam bo`limini tamirlash ishlari, toza ichimlik suvlarini tortish ishlari, tungi yoritish chirog`lari, ko`chalarni asfaltlashga ajratilgan.

Bunda fuqarolar tomonidan jami **948** ta ovoz berilgan, shundan 474 ta sms orqali , 4 tasi onlayn ovoz berilgan.

2022.-yil Andijon viloyati Jalaquduq tumani da to`rt chorak yakuniga ko`ra jami 11-ta loyixaga qiymati **9 210 000 000** (To`qqiz milyart ,ikki yuz o`n million,) so`m ajratilgan.

Bu loyixalar; ichki yo`llarni tamirlash, kapitalni qayta tamirlash, tez yordam bo`limini tamirlash ishlari, toza ichimlik suvlarini tortish ishlari, tungi yoritish chirog`lari, maktabgacha ta`lim muassasalarni tamirlash, umumta`lim maktablarni tamirlash va jixozlash ajratilgan.

Bunda fuqarolar tomonidan jami **18844** ta ovoz berilgan, shundan 18056 ta sms orqali , 128 tasi onlayn ovoz berilgan. Shuni anglatadiki 2022 yil da fuqarolar ishtiroki 2021 yilga nisbatan sezilarli darajada oshganini ko`ramiz

2023-yil Andijon viloyati Jalaquduq tumani da to`rt chorak yakuniga ko`ra jami 12-ta loyixaga qiymati **14 327 000 000** (O`n to`rt milyart ,uch yuz yigirma yetti million) so`m ajratilgan.

Bu loyixalar;Ichki yo`llarni tamirlash, kapitalni qayta tamirlash, tez yordam bo`limini tamirlash ishlari, toza ichimlik suvlarini tortish ishlari, tungi yoritish chirog`lari, maktabgacha ta`lim muassasalarni tamirlash, umum ta`lim maktablarni tamirlash va jixozlash va boshqalar ajratilgan. Bunda fuqarolar tomonidan jami **71174** ta ovoz berilgan, shundan 71174 ta sms orqali. Bu yilda oldingi yildagilarga nisbatan juda katta uzgarishlar va qo`shimchalar kiritilda va fuqarolar ishtiroki har yilgiga nisbatan anchaga oshdi.

Andijon viloyati Jalaquduq tumani 2021-yildagi tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi ko`radigan bo`lsak 4 chorak yakunlari bo'yicha 4 loyiha moliyalashtirilgan bo`lib bu loyihalarni moliyashtirish uchun ajratilgan pul mablag`i 1 mlrd. 62 mln. so`mni tashkil etadi .Bu loyihalar hududiy ichki yo`llar va tez yordam bo`limini tamirlash va ko`chani tungi yoritish chirog`lari va ko`chalarni asfaltlash uchun sarflangan .Bu loyiha tasdiqlanishida Jalaquduq tumani mahallar faollari va fuqarolari faol ishtirok etishgan. Tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan 2022-yil loyihalar tarkibi ko`radigan bo`lsak 4 chorak yakunlari bo'yicha 11 ta loyiha moliyashtirilgan bolib bu loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan pul mablag`lari qiymati 9 mlrd. 210 mln. so`mni tashkil etadi bu summa 2021-yilga nisbatan 82.41% ko`p ajratilgan . Bu loyihalar umumta'lim maktablarini tamirlash va qayta jihozlash uchun, hududiy ichki yo`llarga va qolgan qismi esa sog'liqni saqlash muassasalarni tamirlash va qayta jihozlash va ijtimoiy muassasalarii tamirlash va qayta jihozlash uchun jalb etilgan .

Andijon viloyati Jalaquduq tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan 2023-yil loyihalar tarkibi ko`radigan bo`lsak 4 chorak yakunlari bo'yicha 12 ta loyiha moliyalashtirilgan bo`lib bu loyiha uchun ajratilgan pul mablag`lari qariyb 13 mlrd so`mni tashkil etadi , bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan 29,15% ko`p degani . Bu summaning asosiy qismi umumta'lim maktablarini tamirlash

va qayta jihozlash uchun, sog'liqni saqlash muassalari tamirlash va qayta jihozlash uchun qolgan qismlari hududiy yo'llar uchun va hududiy obodonlashtirish va boshqa ijtimoiy muassalarni tamirlash va qayta jihozlash uchun sarf etilgan.

Yuqoridagi barcha jadvallar ma'lumotlardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki 2021-2023-yillar orlig'ida tashabbusli byudjet doirasida Jalaquduq tumanida istiqomat qiluvchilar va boshqa aholilar orasidagi fuqarolar faolligi oshgan. Tashabbusli byudjet loyihasiga berilayotgan loyihalarning soni yil sayin oshib borishi, ularning moliyalashtirilishi uchun berilayotgan ovozlarining ortib borishi va shu jumladan tuman doirasida loyihalar moliyalashtirilishi uchun byudjet summasining ortib borishida ham buning tasdiqini ko'rishimiz mumkin. Davlatimiz tomonidan berilayotgan bunday erkinliklarning vujudga kelishida, viloyat va tumanlar orasida byudjet mablag'larining sarfida aholining ishtirokini oshirishda va uning aholi uchun eng kerakli va dolzarb bo'lgan yo'nalishlarga sarflanishida "Tashabbusli byudjet" loyihasining o'rni katta. Kelajakda bu loyihani qo'llab quvvatlab, davlat miqyosida, aholining keng ko'lamini qamrab olish, xorij tajribasini o'rganib, uning o'zimizda ham joriy ettirish yo'llarini ishlab chiqish davlatimizning eng oliy va dolzarb masalalaridan biri bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарк. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo'llanma." Toshkent: "Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
5. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
6. Маликов ТС. Хайдаров НХ "Молия: умумдавлат молияси". Ўқув қўлланма. 2009.
7. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
8. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
9. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
10. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
11. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
12. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022

13. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
14. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
15. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
16. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув кўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
17. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий қарашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
21. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
22. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
23. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
24. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
25. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
26. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления. “Молия” илмий журнали. 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
28. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
29. Машарипов И. Б. Фуқаролик жамиятининг ривожланиш даражасини баҳолаш индекслари. ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ. 2018. 1/6 сон